

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY FISHI


Ona yurtiing — oltin beshiging

TONG YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

2007 yil
14 – 20 may
N:20
(66613)



O'yinqaroq do'stlarim,
Shoshirmay turing biroz.
Birinchi imtihonga,
Fursat qoldi juda oz!

DUSHANBADAN

ZAMONAVIY



KUTUBXONA

Respublika Bolalar kutubxonasida bolalarga yangi imkoniyat yaratildi. Ya'ni, kutubxonada «Respublika bolalar kutubxonasini audiovizual uskunalar bilan ta'minlash» loyihasining taqdimoti bo'lib o'tdi. Yaponiya hukumati kutubxonaga qiymati 28,6 million iyen bo'lgan qurilmalarni taqdim etdi. Endilikda kutubxonada zamonaviy kutubxona, axborot, internet va media-texnologiyani o'zida jamlagan axborot intellektual markaz barpo etildi. Bolalar kutubxonasining o'n uch ming nafar o'quvchisi bu hamkorlikning samarasini amalda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

SHOIRNING UY MUZEYIDA

Akademik shoir G'afur G'ulom hayot bo'lganida, 104 yoshga to'lgan bo'lardi. Har yili 10 may kuni shoirlar, yozuvchilar, noshirlar, san'atkorlar shoir yashagan tabarruk maskanga yig'iladilar.

Uy muzey ziyoratga kelganlar bilan gavjum. O'zbekiston xalq shoiri Ramz Bobojon yoshlarga G'afur G'ulom bilan o'tgan kunlarni esladi va «Mening hayotim», «Esdaliklar» kitobidan G'afur G'ulom bilan bo'lgan uchrashuvlarning ayrim sahifalarini o'qib berdi. Shuningdek, taniqli shoir va-yozuvchilar ham yig'ilganlarga shoir ijodi haqida gapirib berdilar.

«AQL GIMNASTIKASI»NING G'OLIBLARI

Har yili an'anaga aylangan shaxmat bo'yicha o'tkaziladigan bu yilgi turnir ham nihoyat o'z g'oliblarini aniqladi. Musobaqada Toshkent shahridagi maktab o'quvchilari faol qatnashdilar. Sport ustasi Mamajon Muhitdinov xotirasiga bag'ishlangan 6-tumirda Yunusobod tumanidagi 235-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Sardor Obidov birinchilikni qo'lga kiritdi. Hamza tumanidagi 61-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi Chingiz Rahimberdiyev 2-o'rinni va Mirobod tumanidan Malika Yusufxo'jayeva esa 3-o'rinni band etishdi.

G'olib o'quvchilarni taniqli yozuvchimiz Husniddin Sharipov tabrikladi.

DUSHANBAGACHA

«TRAPETSIYA» ENG BILIMDON CHIQDI

Navbatdagi ochiq o'quv seminar mashg'uloti 2-«D» guruhida matematika fanidan o'tkazildi. O'quvchilar «To'g'ri burchak», «Uchburchak», «Doira», «Besh burchak», «Trapetsiya» va «Kvadrat» guruhlariga bo'linib, o'zaro bellashdilar.

Mashg'ulot boshlanmasdan avval:


–Qaysi guruh g'olib bo'ladi? – deya o'quvchilarga savol berdim.

–Albatta, bizning guruh-da, – qat'iy javob berdi bir o'quvchi. Tanishish maqsadida ismini so'radim. U «Trapetsiya» guruhi sardori Navro'z Salimov ekan.

–Yo'q, bizning guruh, – suhbatga aralashdi «Kvadrat» guruhi boshlig'i Azizaxon Ibragimova.

Nihoyat dars boshlandi. Oliy toifali matematika fani o'qituvchisi Dilbarxon Ibodova o'tgan mavzularni mustahkamlash maqsadida test savollarini tayyorlab, har bir guruhdan bittadan o'quvchini doskaga taklif etdi.

Guruh a'zolari yil davomida o'qib-o'rganan mavzulari



Bir dars tahlili

O'quvchilarning diqqati kodoskopga qaratilgan.

yuzasidan berilgan savollarga hech qiynalmasdan javob berishdi. Hatto kodoskop apparati yordamidagi savollar javobini ham izohlab, aniq tushuntirishdi.

«Kim chaqqon» fan o'yinida bilimdonlar matematika fanini yaxshi ko'rishlarini isbotladilar.

Navro'zning «bashorati» to'g'ri chiqdi. Har bir guruh berilgan vazifalarni a'lo darajada bajarishga harakat qildi, biroq, g'oliblik «Trapetsiya» guruhiga nasib etdi.

Ha, aytmoqchi, matematika fanini qiziqib o'qiyotgan bu bilimdonlar Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyi o'quvchilari edilar. Ushbu guruh filologiya yo'nalishidagi yapon tiliga ixtisoslashtirilganiga qaramasdan, aniq fanlarni ham qunt bilan o'rganmoqdalar.

Ochiq seminar mashg'ulotini kuzatgan O'zbekiston


Milliy universiteti qoshidagi S.X.Sirojiddinov nomli Akademik litseyi direktori Qahramon Ibodullayev, Toshkent shahar, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi mutaxassisi Ozoda Karimova, O'MKXTM Akademik litseylar boshqarmasi bosh mutaxassisi M.Shorahmedov va litsey o'qituvchilari mazkur dars tahlili haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirar ekanlar, o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini va albatta bunda o'qituvchining hissasi katta ekanligini alohida ta'kidlab o'tishdi.

Bir dars tahlilidan shunday xulosaga keldimki, o'quvchilar nafaqat ijtimoiy, balki aniq fanlarni ham o'rganishga astoydil harakat qilmoqdalar. O'quvchilarga yetarli va kerakli sharoitlarni yaratib berayotgan litsey direktori Baxtiyor Eshonjonov, ilmiy mudir Dildora Sodiqova hamda bor bilim va imkoniyatini ishga solib, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga intilayotgan ustoz Dilbar opadek ustozlardan hamma birdek xursand.

F.ODILOVA,
Ulug'bek BO'TAYEV



«Kvadrat»chilar ham bo'sh kelishmaydi.



Navro'z guruhdagilar ishonchini doimo oqlaydi.

A'LOCHIMIZ MUSOBAQADA ANIQLANDI



Maktabimizda a'lochi o'quvchilar juda ko'p. Ular ichidan eng a'lochisini tanlab olish uchun kichik musobaqa tashkil etdik. Unga maktab rahbarlari hamda fan o'qituvchilari hakamlik qildilar. Musobaqada har sohadan bir shingil tarzida savollar berildi. Bundan tashqari, o'quvchilarimizni aktyorlik, san'at sohalarida ham sinab ko'rdik. Musobaqada 9-«A» sinf o'quvchisi Shahnoza Nazarova maktab bo'yicha eng a'lochi o'quvchi deb topildi. Bunda uning tashabbuskorligi, odobi, ijodkorligi va intellektual salohiyati ham hisobga olindi.

B.IBRAGIMOV,

Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumani XTBga qarashli Muso Jalil nomidagi 13-o'rta maktab direktori

Maktabimiz Uchtepa tumanidagi Deroz mahallasida joylashgan. Bu mahallada Zulfiyaxonim, Mirmuh-sin, Abror Hidoyatov singari el tanigan kishilar yashaganlar. Hozir ham mahallamizda O'zbekiston xalq artisti To'ychi Oripov, taniqli adib, sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyev istiqomat qilishadi.

Biz 106-maktab qoshida tashkil etilgan «Nihol» to'garagi a'zolari ustoz adib bilan ijodiy hamkorlik o'rnatganmiz. Ular ijod bobida bizdan qimmatli maslahatlarini ayamaydilar. Shunday kunlarning birida Xudoyberdi aka bizdan:

–Sizlarni Mustaqillik, Xotira maydoniga olib borsam maylimi? – deb so'radilar. Bir ovozdan rozi bo'ldik. Bizga ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz,

to'garagimiz rahbari Marg'uba opa Isomiddinova ham hamrohlik qildilar. Xotira maydonidagi shahidlar daftaridan Toshkentdan urushga ketib, qaytib kelmagan yigitlarning nomlarini topdik. Motamsaro ona poyiga guldastalar qo'ydik. Bu joyni ziyorat qilishga kelganlar talaygina ekan, ustozni taniganlar, ular bilan omonlashish uchun

har yerdan chopib kela boshlashdi. Samarqand, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo... Xullas, Xudoyberdi aka barcha uchun aziz inson. Biz bir chetda turib, shunday ulug' inson bilan hamqadam, hamnafas bo'lib yur-

SIZ-LA O'TGAN



HAR DAM G'ANIMAT...

ganimizdan faxrlanib ketdik. Keyin domla bilan suhbat boshlandi:

–Bundan 58 yil muqaddam geografiya ustozimiz Sohib domla bilan toqqa sayohatga chiqqandik, – deb gap boshladilar ular. –Tuflilarimizni ayab, oyoqyalang bo'lib olgandik. O'shanda toqqa chiqib-tushgunimizcha oyoqlarimiz qavarib ketgandi, har zamonda bunday

joylarga kelib, ziyorat qilib turish kerak. Farzandlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun ularga bobolarimiz qilgan ishlarni gapirib berishimiz kerak, – deya so'z boshladilar ustoz.

–Hayotda o'z o'rnimizni topishimiz uchun nimalar qilishimiz kerak? – degan savolimizga ular:

–Hayotda to'rtta narsa muhim, birinchidan, inson o'ziga va Oллоhga ishonishi kerak, ikkinchidan, mehnatkash bo'lishi kerak, qaysi sohani egallamasin, mehnatdan, qiyinchilikdan cho'chimasligi kerak, uchinchidan, tartib-intizom bo'lishi kerak, to'rtinchidan, o'qishi kerak, tinimsiz o'qish kerak.

Bu sayohat hammamizda olam-olam taassurot qoldirdi. Bu unutilmas onlar shuurimizda,

ongimizda bir umrga muhrlanib qoladi. Ustozimizga uzoq umr, ijodlariga barkamollik tilab qolamiz.

Ustoz, siz-la o'tgan har dam g'animat, Baxtimizga bo'ling doim salomat.

Sitora ISOMIDDINOVA,
Toshkent shahridagi
106-maktabning
8-«D» sinf o'quvchisi,
«Nihol» to'garagi a'zosi

SO'NGGI QO'NG'IROQ

yoki bitiruvchi xayolidagi o'ylar



O'zMUning jurnalistika fakulteti, 1-bosqich talabasi Z.Zamonov so'nggi qo'ng'iroq haqidagi xotiralarini shunday bayon qiladi:

MAKTUB

Aziz tengdosh! Siz so'nggi qo'ng'iroqni qanday qadrlaysiz? Shu kuni qanchalar g'animat, aziz ekanligini bilasizmi? Balki sizning qalbingizda ham menikidagidek iz qolar? Kechagidek yodimda, chalingan qo'ng'iroq o'quvchilarning ovozi bilan uyg'unlashib ketgan. Xayollar og'ushiga cho'mamiz. Axir bu dargohda o'n bir yil o'qib, ajoyib do'stlarni, bir-biridan mehribon ustozlarni tark etish oson kechadimi? Ilk muhabbat, hayotga ilk qadam - hamma-hammasi shu go'shada paydo bo'lgan.

Men sendan ketar bo'ldim,

Jonajon maktab!

Bag'ringdan uchar bo'ldim,

Qadrdon maktab!

Suhbatdoshimizning his-hayajonga to'la satrlari barcha bitiruvchilarning qalbida kechayotgandir...

Lekin ba'zi o'quvchilar to'qlikka sho'xlik qilib, shu kuni kim o'zarga kiyinishlari, so'nggi qo'ng'iroqdan so'ng o'ziga alohida video, chet el rusumidagi mashinalarga buyurtma berishlariga nima deysiz? Moddiy ahvoli bunday dabdabalarni ko'tara olmaydigan oila farzandlari-chi?! Ularda orzu-havas yo'q deb o'ylaysizmi?.. Suhbatdoshimiz Maftuna (manzillarini sir tutdik) akasining bitiruv kechasi hayotidagi eng noxush kun bo'lganligini xafa bo'lib so'zlab berdi:

«RO'ZG'ORGA SARFLAGANIM MA'QUL»

8-sinfda o'qib yurgan paytimda otam vafot etdilar. Bu musibat onajonimni, akamni va ukalarimni qayg'uga solib qo'ydi. Otam oilamiz ustuni ekanliklarini vafotlaridan so'ng anglab yetdik. Hamma og'irlik akajonimning yelkalariga tushdi. Darslardan so'ng yoqilg'i quyish shahobchasida ishlab, bizni boqa boshladilar. So'nggi qo'ng'iroqqa ham bormadilar. Maktab bizga yaqin bo'lgani uchun kuy-qo'shiq sadolari


BAHOR OXIRLAYAPTI

Maktabimizda o'tgan «Sumalak oqshomi» bir umr yodimda qoldi. Maktabimiz direktori Jamila opa Sindarovaning bevosita boshchiliklarida ustozlar o'z o'quvchilari bilan birgalikda sumalak pishirishga yig'ilishdi.

Men maktabdoshlarimni kuzatar ekanman, ayniqsa, 7-«A» va 8-«V» sinf o'quvchilarining har bir ishga «Labbay!» deb javob berishib, ustozlar bilan birga barcha tashkiliy ishlarni o'tkazishda ularga yaqindan ko'maklashganlaridan xursand edim. Barcha ustozlar va o'quvchilar yurtga tinchlik, omonlik, xayr-baraka tilab, yaxshi niyatlar bilan qozon kavlab, sumalak pishirishdi. Kechgacha saylga kelganlar o'yin-kulgi qilishib, mazza qilib hordiq chiqarishdi. Maktabimiz yaqinidagi uylarda yashayotgan yoshi ulug'larga ham sumalak ulashdik. Bularni esdan chiqarib bo'ladimi?! Sumalak pishirgan kunimiz sira esimdan chiqmaydi.

Muyassar QURBONOVA,

Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 301-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi



aniq eshitilar edi. Onam akamga: «Bor, inson maktabni bir marotaba bitiradi. Hech bo'lmasa, hovlidagi atirgullardan olib, ustozingga berib kel», dedilar. Akam esa: «Onajonim, sinfdoshlarim ustozlarimizga gul uchun, qolaversa, tadbirdan so'ng shahar aylanishlari uchun katta pul yig'ishgan. Men bir oy ishlab topgan pulimni ro'zg'orga sarflaganim ma'qul», dedilar.

Albatta bunday holat hamma yerda bir xilda deb bo'lmaydi. O'qituvchilar shu kuni o'quvchilari bilan birga bo'ladilar, tadbirdan so'ng aylanish uchun shaharning turli burchaklariga tarqab ketishiga ruxsat bermaydilar. Ammo bitiruvchi shu kuni sinfdoshlari bilan o'zi orzu qilganidek sayr-u sayohat qilishni istaydi. Bizningcha, so'nggi qo'ng'iroq va «Oqshom» kechalarini o'quvchilar ustozlari bilan maslahatlashib o'tkazishsa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Yana bir maqolada esa «Tong yulduzi» gazetasining muxlisi Nargiza Murodova opasining boshidan o'tganlarini hikoya qilibdi. Uning yozganlari hademay oliy o'quv yurtlariga imtihon topshiradiganlarga saboq bo'lsa, ajbmas.

CHAYQOVCHILARGA ALDANIB QOLMANG!

Maktabni tamomlab, barcha bitiruvchilar ulkan orzu umidlar bilan oliy o'quv yurtlariga hujjat topshiradilar. Dugonam ikkimiz o'tgan yili oliy o'quv yurtiga hujjat topshirgandik. Dugonam fan olimpiadalari g'olibi bo'lgani, maktabni esa imtiyozli tamomlagani uchun imtihonlardan o'tib ketadi, deb ishongandim. Imtihondan so'ng test natijalari e'lon qilindi. Mening quvonchim ichimga sig'masdi, lekin dugonam... Uning ko'zidagi ma'yuslikni ko'rib, yuragim ezildi. Imtihonlarga 3-4 kun qolganda dugonam ko'chadagi chayqovchilardan test javoblarini falon pulga sotib olibdi va javobni o'sha qog'ozga qarab belgilabdi. «Shpargalka»dan foydalanib, imtihondan o'tolmagani u uchun armon bo'lib qolgan edi...

TAHRIRIYATDAN:

Aziz o'quvchi! Yuqoridagilardan o'zingizga xulosa chiqarib olasiz, deb o'yaymiz. «Shpargalka»larga emas, o'z bilimingizga ishonib! Nima bo'lganda ham, sizning quvonchingiz ota-onangiz va ustozlaringiz quvonchlaridir. So'nggi qo'ng'iroq kunini barchaga namuna bo'ladigan darajada o'tkazasiz, degan umiddamiz.

*Gulyuz BAHODIR qizi,
Gulnora MUSLIMOVA,
Xalqaro jurnalistika
fakulteti talabasi*

Tezkor, texnika asrida yashayapmiz. Zamonaga yarasha doimo shoshamiz, yugurib-yelamiz. Miyamiz qabul qilishi lozim bo'lgan kundalik ma'lumotlar shunchalar ko'pki, aqlini shoshirib qo'yadi odamning. Tashvishlar bilan bo'lib, tabiatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni kuzatishga, go'zalliklaridan bahra olishga fursat ham topa olmaymiz.

Lekin oramizda shunday bolalar, hatto kattalar ham borki, bunga fursat topa oladilar. O'zlari bahra olibgina qolmay, siz-u bizga ham ilinadilar. Men ularni haqiqiy tabiat shaydolari, degan bo'lardim.

Ana shunday maktublardan saralangan qo'sh sahifamiz sizga ham ma'kul bo'ladi, degan umiddamiz.

Tiriklik deb yonasan

Sen bizlarga onasan,
Tiriklik deb yonasan.
Mehrimizdan qonasan,
Onajonim tabiat!

Ijoding buncha buyuk,
Gohida bag'ring kuyuk.
Sen hammadan ham suyuk,
Onajonim tabiat!

Shoira YUNUSOVA,
M.S.Tursunxo'jayeva nomli
tibbiyot kollejining
2-bosqich talabasi

QUYOSH

Ufqdan quyosh chiqib asta,
Olam nurga, cho'mildi.
Bunday ajib manzaradan,
Qalb shodlikka ko'mildi.
Kapalak sho'x raqsini boshlab,
Bog'da bulbul kuylaydi.
Tabiat ham o'z tilida,
Quyoshga roz so'zlaydi.

Feruzah AHMADOVA,
poytaxtdagi 97-maktabning
5-«V» sinf o'quvchisi



TOPISHMOQLAR

Sap-sariq katta kalla,
Boshida yashil salla.

(оуунх)

Mayda, mayda xoli bor,
Mazasida boli bor.
Pishadi may, iyunda,
Yeb qo'yaman bir zumda.

(хуудннн)

Dilnavoz SAIDOVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi
X.Boqiyev nomli
1-ixtisoslashtirilgan maktabning
8-«A» sinf o'quvchisi

Bunchalar go'zalsan, ona tabiat!

Termulib borliqqa boqqanda goho,
Ko'zimga ko'rinar ajib bir hilqat.
Hushingga lol qolar hattoki samo,
Bunchalar go'zalsan, ona tabiat!

Bag'ringda bir oppoq kabutar bo'lib,
Samolarni quchib uchgim keladi.
Chiroyingga shaydo kapalak bo'lib,
Chaman gullarini quchgim keladi.

Qo'limga rango-rang qalamlar olib,
Chiroyingga mahliyo chizdim bir surat.
Ajib go'zallikka uzoq termulib,
Men uni nomladim - «Ona tabiat».

Begzod JUMAYEV,
Buxoro viloyati, Vobkent
tumanidagi 4-maktabning
8-sinf o'quvchisi

BILASIZMI?

O'rmon yoki bog'ning bir gektari
bir yilda 18 million kubometr havoni
chang va gazdan tozalaydi.

Olimlarning hisobiga ko'ra, yer
yuzidagi barcha o'simliklar dunyosi
o'zidan yiliga 400 milliard tonna
kislorod ajratadi.

Daraxtning bir kubometrigan
yarim million dona tish tozalagich
yasash mumkin.

Dunyoda eng hidi o'tkir gul
Amerika kaktusidir. Uning hidi bir
kilometr uzoqlikdan ham dimoqqa
urilarkan.

Bir gektar yantoqdan 40-50

kilogramm shakar olish mumkin.

Bir kilogramm limonda bir
kilogramm qulupnaydan ko'proq qand
bor.

Deyarli barcha rangdagi
atirgullarni uchratish mumkin, ko'k
va qora rang bundan mustasno:
genlar yo'q.

Shimoliy Amerikada «Dev daraxti»
deb atalmish bir o'simlik o'sadi. Uni
ba'zan mash'al o'simlik sifatida ham
tilga olishadi. Bu daraxt kechalari
o'zidan chiqargan yorug'lik shu'lalida
bemalol kitob o'qisa bo'ladi.

Jizzax viloyati, Zomin
tumanidagi 36-o'rtta maktab
o'qituvchisi Nodirbek
YO'LDOSHEV tayyorladi

QILAYVONOT

BALIQLAR HAM KOPTOK O'YNAYDIMI?


Fanga hozircha koptok o'ynaydigan baliqlarning 2-3 turigina ma'lum. Bu - Peters uzuntumshuq gnatonemusi. Hozir bu baliq akvariumlarning qadrdon mehmoni hisoblanadi. Agar akvariumga kichkina koptok tashlansa, baliq tezda suzib keladi va koptokni boshi bilan irg'itadi. Nega aynan boshi bilan, degan savol tug'ilishi mumkin. Sababi, baliqlarning oyog'i yo'q-da! Shunday bo'lsa-da, ulardan ajoyib futbol jamoasini tuzsa bo'ladi.



ILONLARNING ENG UZUNI

Biz eng uzun ilonni fantastik kinolarda ko'rganmiz. Bu - anakonda. Uning rekord uzunligi 11 metr-u 43 santimetrdir. Olimlar o'lchab ko'rgan bo'g'ma ilon udav va pitonlar orasida 9 metrdan uzunrog'i uchragan emas.

Bahodir RAHMONOV,
Toshkent viloyati,
Zangiota tumanidagi
40-maktabning
10-«A» sinf o'quvchisi



JONIVORLAR JON-U DILIM

Salom, qadri gazetam!

Men Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi 36-maktabning 5-sinfida tahsil olaman. O'qishlarim chakkini emas. Mitti hikoyalari yozib, rus tilidan tarjimalar qilib turaman. Sinfimiz bilan sening ashaddiy muxlisingiz. Har soningni maroq bilan o'qib chiqib, sinf rahbarimiz Odil aka bilan birgalikda muhokama qilamiz.

Darsdan bo'sh vaqtlarimda uy yumushlariga qarashaman. Ayniqsa, uy hayvonlarini parvarishlashni yaxshi ko'rman. Jonivorlar ham juda ziyarak bo'lishadi-da. Kimki ularga mehribonlik qilsa, o'sha insonga juda bog'lanib qolishadi. Zarur paytda unga yordamga ham oshiqishadi.

Suratdagi mana bu tuya ham meni yoqtirib qolgan ko'rinadi, shunday emasmi?

Munisa ABDUVALIYEVA

VA N ABOTOT OLAMI

ILON O'RDASI

«RASSOM» CHUMCHUQ

Sobir ko'pdan buyon bo'yoq tegmagan yozgi shiypinning shifti, peshtoqi va poliga bo'yoq berdi. Bir-biriga mos tushgan ranglar jilosidan zavqlanib, xuddi buyuk asar yaratgandek quvondi. Shu payt shiyponga bir chumchuq uchib kirdi-da, qo'nalg'atopolmay, polga qo'ndi. Yangi surtilgan bo'yoqni jajji oyoqlari bilan kecha boshladi. Sobir shosha-pisha qushni «kish-kishladi» va polni ko'rib, biroz ranjidi. Lekin chumchuq izariga diqqat bilan razm solgach, ko'nglidagi g'ashlik tarqaldi. Chunki ular bahorda ochilgan mayda chechaklarga juda o'xshardi. Polni qayta bo'yayman, deb turganda, oyisi yoniga kelib:

«Bahorgi mayda chechaklarning o'zginasi-ya, chumchuq tushmagur xuddi rassomdek chizibdi-ya. Qayta bo'yamay qo'yaver, - deya uni o'xtatdi.

Bu paytda chumchuq bodom shoxida qanotlarini yalab o'tirar va Sobirga nimadir demoqchi bo'layotgandek chiriqladi.

Nima demoqchisi, chizgan rasmingga haq so'rayapsanmi deyman. Hozir seni bir mehmon qilaman, - deya ombordan bir qism don olib chiqib, yo'lakka sepd. Chumchuqqa boshqa qushlar ham sherik bo'lishdi va yeb bo'lgach, «pir» etib uchib ketishdi. Haligi chumchuq esa yana bodom shoxiga qo'nib, minnatdor bo'lgandek sho'x chiriqladi va shiypon atrofini bir aylantirib, uchib ketdi.

«Tez-tez kelib tur, «rassom» chumchuq, mehmon qilaman, - deya qo'l siltab qoldi Sobirning ketidan.




himoyaga o'tdim. Ona ilon bir necha hamladan so'ng qattiq chirilladi. Ko'p o'tmay ikkinchi ilon paydo bo'ldi va u ham shiddat bilan menga tashlandi. Qo'rqib ketdim. Uchinchi ilon paydo bo'lgach, o'zimni butunlay yo'qotib qo'ydim. Xayolimga ilonchani ozod qilish fikri keldi-yu, chelakni tepib yubordim. Iloncha chelak ostidan chiqqach, ularning ta'qibi susaydi. Ilonchani o'rtaga olib, ajriqzorga kirib ketishdi. Qo'rqib ketganimdan sigirimni yetaklab, uyga qochdim.

Dadam, tepalikda ilon o'rdasi bor, ehtiyoq bo'linglar, der edilar. Erta bahorda o'sha tepalikka yo'lim tushib qoldi. Dalalar endi qordan yuz ochgan ayozli kunlar edi. Qiziqib ilon o'rdasini izladim. Qiyalikdagi tuynukdan mo'raladim va bir-biriga o'ralashib yotgan ilon tanalarini ko'rdim.

N. MAMADALIYEV,
Namangan viloyati, Uychi tumani,
7-maktab


«GOVMUSHIM SEMIZMI, MENMI?»



Sirdaryo viloyati, Baxt shahridagi
3-O'smirlar ijodiyot markazi a'zosi
Begzod SHOIMOV surat-lavhasini
shunday nomlabdi.

SAVOLLAR:

1. Olchaning boshqa turi.
2. Achchiq sabzavot.
3. Undan tomat tayyorlanadi.
4. Butasimon, qizil, kichkina meva.
5. Poliz ekini.
6. Qizil rangli yer mevasi.
7. «Yer ostida oltin qoziq».
8. Nordon sitrus meva.
9. Tok mevasi.
10. Mandarinmi yo'?
11. Sitrus meva.
12. Ko'k to'qli poliz ekini.
13. Mevali qatig.



Qo'sh sahifani Feruza JALILOVA tayyorladi

O'QI, QIZIQ!

Hasharotlar sayyoramizda ishlab chiqariladigan oziq-ovqatning o'ndan bir qismini yeb bitirishar ekan.

Otlar turli buyumlarni haqiqiy o'lchamiga nisbatan kattaroq ko'rishadi. Chunki ularning ko'zlari kattalashtirib ko'rsatuvchi shisha xususiyatiga ega.

Pingvinlar yerdan ikki metr balandlikka sakray olishar ekan.

Jirafa shoxi bilan tug'iladigan yagona hayvondir.

Boyo'g'lining tanasidagi patlari og'irligi tanasining og'irligidan ko'proqdur.

Ko'rsichqon bir kechada 68 metr yerni qaziy oladi.

Buni qarangi, chivinlarning ham tishlari bo'lar ekan. Mikroskop ostida qaraganda, ularning og'zida 22 dona tishni ko'rish mumkin.

Eng katta qush tuxumi tuyaqushga tegishli bo'lib, uni suvda pishirish uchun ancha vaqt kerak bo'ladi.

O'rdak va g'ozlar 110 darajagacha sovuqqa bardosh bera oladi.

Toshbaqa bir yilda 8 oy uxlaydi.



Baliqlar orasidan ikkita bir xilini toping

1 (Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Kamol yoznamiz ham oti chiqqan polvonlardan emasmi, bir kun emas, ikki kun kurash bo'ldi. Birinchi kuni hozirga o'xshagan yosh-yalanglar olishdi, keyingi kuni atrofdan kelgan katta polvonlar. Shunday qilib, to'rt kuni ham o'tkazdik. Beshinchi kuni qiz bazmi bo'ldi. Oltinchi kuni xolamnikida kuyov navkarlarni kutib olishimiz kerak edi. Men og'aynilarim bilan xizmatda turibman. Bir vaqt «Kuyov keldi! Kuyov keldi!» bo'lib qoldi. Salima checham childirmasini jaranglatib, laparchi ayollar bilan kuyov to'rani kutib olgani chiqishdi. Kamol yoznamiz bosh egib darvozadan kirishi bilan Salima checham laparini boshladi:

–*Qo'llarda bitgan quroqday,
Yoniblar turgan chiroqday.
Yor jo'rasi, kuyov navkari bilan,
Xush kelibdi kuyovlar!*

Kamol yoznam ostona hatlab to'xtadi. Endi ikkinchi laparchi xotin alyor aytdi:

–*Oshlarga solgan ilikday,
Qosh-u ko'zi pilikday.
Yor jo'rasi navkari bilan,
Xush kelibdi kuyovlar!*

Tag'in childirma gijbadabang bo'ldi, checham gapni ilib ketdi:

–*Yuzlari bozor noniday,
So'zlari odam joniday,
Yor jo'rasi navkari bilan,
Xush kelibdi kuyovlar!*

Momom kuyovning boshidan hovuch-hovuch shirinlik sochdi. Bolalar yerga yopirilib, qand-qurs tera boshladi. Kuyov bilan jo'ralari uchun katta o'rik ostidan joy qilib qo'ygan edik. Ularni o'tqazib, mehmon qilishga kirishdik. Oyog'imiz olti, qo'limiz yetti. Toshqul do'stim, Begzod, Dilmurod, hammamiz yugurgilab choymi, nonmi, go'shtmi, tashib turibmiz. Oqsoqlanib Shokir do'stim ham yonimda yuribdi. Mo'miyo icha boshlagandan beri u ancha o'ziga kelib qolgan.

dasturxonlarni yig'ishtirgunimizcha qosh qorayib, kelin uzatadigan vaqt bo'ldi. Biz tomonlarda otobobolarimizning yaxshi bir odati saqlanib qolgan. Kelinni ataylab yasatilgan otda uzatamiz. Otning yollari, quyruqlariga yaltiroq taqinchoqlar taqiladi, boshiga jig'a boylanadi, egari ham rosa bezatilib, shoyi ko'rpachalar solinadi. Kelinni orqasidan ukasimi, jiyanimi, quchoqlab o'tiradi, otni eng yaqin tug'ishgani, tog'asi yo amaki yetaklaydi.

8. XAYRLASHUV

Charchab, endi joylashib o'tirgan edik, birdan childirma daranglab qoldi. Chiyillab, unga surnay qo'shildi.

Kelinni obchiqishdi. Otam tog'a o'rinda Oysuluvni dast ko'tarib, otga mindirdi. Orqasiga ukasi Niyozmat o'tirdi. Otam otni yetakladi. Salima checham yor-yorini boshladi. Bir to'p xotin unga jo'r bo'ldi. Boyagi do'ppisini o'g'irlatgan kuyov navkar boladay o'ynar ekan, sallona-sallona yoznamiznikigacha yer changitib bordi.

Kayvoni momolar umrlari shirin bo'lsin, deb kelin-kuyovning boshidan sochqi sochishdi. Kamol yoznam kelinni otdan ko'tarib oldi-yu, o'rtada gurillab turgan olov atrofida uch marta aylantirib, chimildiqqa olib kirib ketdi.

O'yin-kulgi, to'y-tomosha yetti xuftongacha cho'zildi. Oxiri Begzod, Dilmurod, Shokir to'rttovimiz zerikib, uyga chiqib ketdik.

–Oxirgi marta tomdayotaylik, – dedi Begzod, – ertaga ketaman.

–Ha, aytmoqchi, xolamning to'yiga Toshkentdan Davron amakim ham keldi. U to'yni o'tkazib, endi bir yo'la Begzodni ham olib ketmoqchi ekan.

–Kelganiga bir oydan oshdi, – dedi amakim. – Endi

2 Bir vaqt Dilmurod ukam chopqillab yonimga keldi. Qulog'imga shivirladi:

–Aka, do'ppi o'g'irlaymiz ekan, Oysuluv opamlar taqinchoqlarni tayyorlab, kutib o'tirishibdi ekan.

Do'ppi o'g'irlash nima ekan, deb hayron bo'lmang. Bizning Ko'kdalada shunaqa odat bor. Kelin tushadigan kuni bolalar kuyov jo'ralardan birortasining do'ppisini olib qochib, kelinning dugonalari keltirib beradi. Qizlar do'ppining sirtiga ko'zmunchoq, marjon, tumor, qalampirunchoq taqib, rosa bezaydi. Kelin uzatiladigan paytda do'ppini egasiga qaytarishadi. Kuyov navkar do'ppisini kiyib oladi-da, surnaychi bilan childirmakashning oldiga tushib, o'ynab boradi. Kampirlarning aytishiga qaraganda, bunaqa yigitning boshiga albatta baxt qushi qo'nar emish. Ensamni qashlab turib qoldim. Shu payt miyanga yarq etib bir fikr keldi. Begzodni chetroqqa chaqirdim.

–Begzod, senga bir ish bor. Davrani sekin aylan, keyin bitta kuyov navkarning do'ppisini olgin-da, menga keltirib ber.

–Do'ppini nima qilasan?

–Kerak. Keyin ko'rasan.

–Tutib olsa, urmaydimi? – dedi cho'chib Begzod.

–Urmaydi. Bizda odat shunaqa. O'zim borardim-u, meni hamma taniydi. Sen mehmonsan, sendan gumonsiramaydi. Bor, qizlar kutib qolishdi.

Begzod xavfsirab-roq kuyov navkarlarga yaqinlashdi. «Choy bormi, obkelaymi?» deb so'radi-yu, ship

etkazib bir yigitning do'ppisini changallab qochdi. Yigit orqasiga qayrilib qichqirdi:

–Ovora bo'lasan, bola, baribir o'ynashni bilmayman.

Men hazillashdim:

–Jilla qurisa, qo'lingizni u yoq-bu yoqqa tashlab, kampir o'yin qilib berasiz-da, og'ajon!

Kuyovlarning ziyofati adog'iga yetdi. Fotiha bo'ldi. Mehmonlar duv turib jo'nashdi. Biz kattalarga qo'shilib

4 uyga borib, maktabiga tayyorgarlik ko'rsin, enasiga qarashsin.

Havo salqinroq bo'lsa ham, Begzodning ko'ngliga qarab, tomga chiqib yotdik. Dilmurod birpasda pishillab uxlab qoldi. Begzod ikkovimiz osmonga qarab yotibmiz, yotibmiz. Yulduzlar bu safar har galgidan ham kattaroq ko'rinib ketdi ko'zimga. Xuddi yong'oqday-yong'oqday bo'lib charaqlab turibdi. Huv o'sha olis yulduzlardek har xil xayollar olib qochadi odamni. Begzod uzun uf tortdi.

Men ham xo'rsindim. «Ko'kdalaning yulduzlari porlaydi», dedim sekin. Begzod bir lahza jim bo'lib qoldi-yu, «Meni imlab qaylargadir chorlaydi», deb she'ning davomini o'qidi.

–Ertaga sen Toshkentga ketasan,– dedim.

–Sen Ko'kdalada qolasan.

–Keyingi yili yana kelasan.

–Sen ham bahorda Toshkentga borasan-a?

–Ha.

Azonda Begzod bilan quchoqlashib xayrlashdik. Unga esdalik deb ho'v eshakko'pkarida olgan sovg'alarimni berdim. Katta yo'lgacha eshakka mindirib kuzatib qo'ydim. Begzod ancha yergacha soyaboni uzun oq shapkasini chulg'ab, xayrlashib bordi.

Endi, azizlar, sizlar bilan ham xayrlashadigan vaqt keldi, chamasi. Bobom aytmoqchi, to'rt muchangiz sog' bo'lsin, dimog'ingiz chog' bo'lsin, deb xo'shlashaman. Biroq, Xudo xohlasa, yana uchrashamiz. Buni ko'nglim sezib turibdi. Bunga ishonchim komil. Sizlarga yana bir marta tansihatlik, yaxshilik tilab, qo'lini ko'ksiga qo'yuvchi tengquringiz ko'kdalalik Elmurod Normurod o'g'li bo'laman.

O'TAYOTGAN HAR BIR DAM

She'ning mazmuni hayot,
Maqsadi o'zga.
Yurak tafti so'zlarda jo,
Ko'rinmas ko'zga.
Turmush o'sar,
ulg'ayar turmush,
Maqsad ravshanligidan.
Bilgil, arzonga tushmas,
O'tayotgan har bir dam.

JIGI-JIGI

Jigi-jigi, amakijonim,
Sovg'a berdilar shaqildoq.
Ukajonim Ozodjonga,
Qush asrashga to'rqovoq.
Jigi-jigi!
–Hoy, qani?
–Hoy, mana.
Katta akam Shohruhjonga,
O'zi yurar parovoz.
Jigi-jigi, Shohidaga,
Buratino – sho'x dorboz.
Jigi-jigi!
Norjon puchuq
Sovg'alarning hammasin –
Maqtay-maqtay oshiradi,
Bolalarning havasin...

Ahmad HASAN

O'ZGACHADIR BOG'LAR BAHORI...



«Nahotki, bu sen? Menga hech zamon she'rlar yozaman, demasding-ku?! To'g'ri, mehrlarga to'lib kitob

mutolaa qilib o'tirganingni bir necha bor ko'rganim, kuzatganim bor. Nahotki, o'sha paytlarda sen she'rlarga singiyotgan, ijod olamiga oshno tutinayotganding...»

Ushbu satrlar sevimli shoirimiz Safar Barnoyevning nabirasi Nilufarga yozgan maktubidan olingan. 8 yil avval mitti-mitti she'rlari bilan bobosining qalbida umid uchqunlarini alangalatgan Nilufarxon hozirda Mirzo Ulug'bek tumanidagi «Kompyuter texnologiyalari» akademik litseyining 2-bosqichida tahsil olyapti. Bobosi ishonchini oqlash maqsadida tinmay izlanayotgan Nilufarning «O'zgachadir bog'lar bahori» nomli ilk kitobchasi bosmadan chiqdi. Uni marhum ustozimiz Safar aka ko'rganlaridami?..

Quyida Nilufarning bobosiga bag'ishlab yozgan she'rini e'tiboringizga havola qilyapmiz:

BOBOJONIM

Duoningiz armon bo'lib qoldi bizga,
Suyuklisiz, aytolmadik bizlar sizga.
She'rlaringiz birdek yoqqan o'g'il-qizga,
Aslida g'animat ekansiz bizga.
«Onam» deya erkalatib suyar edingiz,
Og'rib qolsak, ishdan qolib kuyar edingiz.
«Bolalarim, tillolarim sizlardayin,
Durdonasi yo'q dunyoda», deyar edingiz.
Bobojonim, sizni endi qayda topamiz,
Manzilingiz aytolmay tashlab ketdingiz.
Ortingizdan mung'ayib, yig'lab qoldik biz,
Endi sizni tuyg'ular-u tushda ko'ramiz.

Nilufar MO'MINOVA

Tamom

YUSUF XOS HOJIB

(XI asr)

Milodiy 1069 yil.

Podshoh Tavg'achxonga Qoshg'ardan yosh olim kelganini, qandaydir kitobni sovg'a qilmoqchi ekanini ma'lum qilishdi. O'sha paytlarda har bir podshoh saroy kutubxonasida nodir kitoblarning ko'p bo'lishini istardi.

Podshohning ruxsati bilan yigitni uning oldiga keltirdilar.

-Ko'rinishingdan dono yigitga o'xshaysan, - dedi Tavg'achxon uning qo'lidagi qalin kitobga nazar tashlab. - Qayerlikсан?

-Asli balasog'unlikman, hazrati oliylari! - ta'zim qildi yigit. Qoshg'arga kelib, «Qutadg'u bilig» kitobini bitdik. Yozganlarim Sizga ma'lum bo'ladi, deb o'ylayman.

Tavg'achxon kitobni qo'lga oldi, erinmay varaqlab, sahifalarga birma-bir ko'z yugurtirdi. So'ng ovoz chiqarib, quyidagi misralarni o'qidi:

Boshdan oxirigacha donolar so'zi, Go'yoki tizilgan marjondek o'zi.

Tavg'achxon Yusufga ma'nodor tikildi:

- Necha oyda yozib tugatding?

- Sakkiz oyda, hazrati oliylari!
- Asar qahramonlari kimlar?
- Kuntug'di, Davlat, Oyto'ldi, O'zurmish va O'gdulmishlardir.

kitob bitibsan! - dedi Tavg'achxon. Ertasi kuni podshoh saroy ahli oldida uning nomini ulug'lab, unga Xos Hojiblik unvonini berdi. El orasida u endi oddiy Yusuf emas, Ulug' Xos Hojib deb e'zozlana boshladi.

Uning «Qutadg'u bilig», ya'ni «Saodatga eltuvchi bilim» asari qariyb ming yildan buyon insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. Asarda juda ko'p insoniy masalalar o'z ifodasini topgan. Ularning ayrimlari bilan tanishib o'tsak:

- Tilning fazilat va manfaatlari haqida.
- Oyto'ldining baxt haqidagi hikoyasi.
- O'g'il va qizlarni qanday tarbiyalash to'g'risida.
- Mehmonga borganda, o'zini qanday tutish lozimligi haqida.

Ko'rinish turibdiki, aziz bolalar, asarning qamrovi nihoyatda keng. Ammo unda asosiy tilga olingan mavzu inson masalasidir.

Asarda oddiy xalq, mehnatsevar inson alohida ehtirom bilan tasvirlangan.

«Qutadg'u bilig» jahonning ko'plab tillarida jaranglamoqda. Bu asar jahonning ko'plab tillariga tarjima qilingan.

Tavg'achxon ovoz chiqarib o'qidi:

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, Bilim kimda bo'lsa, buyuklik olar!

- Haq gap! - podshoh yigitga sinchkov nazar solarkan, yana o'qidi:

Otalar so'zidir biz uchun meros, Otalar so'zining nafi beqiyos!

- Chindan ham oxiratgacha turadigan

VATAN HAQIDA RUBOIY

Tuproq'ingni asraymen har bir zarrasin,
Har yurakda madhiyang abad yangrasin.
Yurtga bo'lgan mehminga shubha qilsa yov,
Isbot-chun, mayli, mening jonim so'rasin.

Bobur o'tdi har qarich yering sog'inib,
Senga bitgan she'rlari bilan ovunib.
Haydashsa ham ketmayman bag'ringdan,
Bag'ringda yetilgaymen, gul misol unib.

Alishmasmen seni hech mol-u dunyoga,
Alishmasmen men seni hech bir ro'yoga.
Yovlaringdan saqlayin jon fido aylab,
Noming ko'tarurmen ko'kka, samoga.

Seni sevib o'turmen Vatanim abad,
Chin qasamyod qiladi o'g'ling,

Muhammad.

Xizmating ado etgum charchamay sira,
Ollohim berib tursa gar menga madad.

Shermuhammad
NURULLAXO'JAYEV

OY HAQIDA MITTIHIKOYA

Men kechqurun oyni kuzatdim.
Oyning oppoq, mayin yuzi, yashindek
yonib turgan ko'zlari, kamon qoshlari
meni o'ziga tortdi. Men oy siymosida
butun vujudimga o'zgacha tarovat
baxsh etuvchi insoniy mehr va haroratni
his qildim.

Xayolimda oy pastga tusha
boshladi. Qorong'u kecha yorishib
ketdi. Men oyning quchog'iga
kirmoqchi bo'ldim. Uning peshonasini
siladim. Go'yo oy xursand bo'lib,
menga jilmaydi. Mashina shovqini oyni
sindirib qo'ydi.


Azizbek YOQUBOV

Hamisha uyg'oq xotira

Uni hazillashib, suyib «G'afur G'ulom ijodining tadqiqotchisi G'ulom G'afur» deb ta'riflardik. Chindan ham yetmishinchi yillarda «G'afur G'ulomning publitsistik faoliyati» mavzuida fan nomzodligini yoqlagan, «Taqdirni qo'l bilan yaratur odam», «Kamalakda nur ko'p, jilo ko'p» kitoblarini nashr ettirgan edi. Jurnalistlar, Yozuvchilar uyushmalari a'zosi G'ulom G'afur jami 16ta kitob nashr etdi. Oltmish uchinchi yili u ToshDU jurnalistika bo'limiga hujjatlari bilan birga e'lon qilgan mashqlaridan oltmishtasini qo'shib topshirganida, universitet rektori, akademik Obid Sodiqov materiallarni zavq bilan varaqlab ko'rib, «Hali ko'rasiz, bundan, bulardan katta jurnalist va yozuvchilar chiqadi», deb bashorat qilgan edi.

G'ulom G'afurni olim, ijodkor inson sifatida yaxshi o'rgandim, bir qator yaxshi fazilatlarini kashf etdim. Uning sermahsulligi, mehnatsevarligi, kunni tunga ulab zahmat chekishlari, ko'z nurini to'kishlari, sog'lig'iga putur yetishlari evaziga edi. Uzoq yillar mobaynida matbuot, radio, televideniya qatnashdi. Toshkent Davlat madaniyat instituti, Iqtisodiyot Davlat universitetida ishladi va keyingi yillarda ToshDU, hozirgi O'zMU jurnalistika fakultetida mudarrislik, murabbiylik bilan mashg'ul bo'lib, el og'ziga tushdi.

MANGU



Suratda: G'ulom G'AFUR (o'ngdan birinchi)

UYG'OQLIK

U ko'p narsa bilishini bildirmay, tinchgina dars berib, sekin qaytardi, sog'lig'ini ayardi. Majlislarda so'zamolik qilish, o'zini faol ko'rsatish payida bo'lmasdan, bahslashish, dahanaki jang-u jadallarni tan olmasdan, behuda kurashishga ketadigan vaqtini biror foydali ishga sarf qildi.

G'ulom G'afurning havas qilsa arzigulik fazilatlaridan yana biri ko'hna boy tariximizdan chuqur xabardorligi, ilohiy va dunyoviy bilimlarni birdek yaxshi bilishi edi. «Qishloq haqiqati» gazetasining ikki sonida bosilgan «Movaraunnahr javohiri» nomli maroqli, dalil, ma'lumotlarga boy maqolasi o'z vaqtida O'rta Osiyo musulmonlari diniy idorasining birinchi sovrini, Navro'z tarixi haqidagi turkum maqolalari esa Respublika jurnalistlar uyushmasining ikkinchi mukofotiga sazovor bo'lgandi.

Buyuk ne'mat - Mustaqillik G'ulom G'afur ilhomini jo'shtirib yubordi. Vatan, millat, istiqol, istiqbol, ma'naviyat mavzularida ko'p narsa yozdi. «Farzandlar oldidagi qarz», «Bola - eng porloq quyosh» kabi jamoatchilikka manzur tushgan maqolalarida kelajagimiz egalari - yosh avlodni jisman va ruhan sog'lom qilib o'stirish, qalbga Vijdon, E'tiqod, Adolat, Yaxshilik, Halollik, Saxiylik, Mehrmuhabbat, Rahm-shafqat, Ishonch, Burch, Ezgulik, Go'zallik kabi tuyg'ularni qo'rg'oshinday quyish haqida kuyinib yozdi, ta'sirli misollar keltirdi.

Saydi UMIROV

TOPISHMOQLAR

Kamalakdek tovlanar,
Qiz tomondan ovlanar.
Vatanidir Marg'ilon
Rusumdan tushmas hamon.

Bir beshikning ichida
Uchta, to'rtta chaqaloq.
Qizil ko'rpa yopingan
Kiyimlari esa oq.

Lo'ppi yuzli oyimqiz,
Oq ekan kiyimingiz.
Sizni hamma sevadi,
Nima ekan ismingiz?




Hilola RO'ZIYEVA,

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 181-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

		Qurib borayotgan dengiz						Kiyim qismi		Olov		Odam ... ichida	Opa-singil bolasi
	Yozuv quoli							... va taklif					
	Cho'l	Tennischi ...Kurnikova	...si pir bo'ldi									Bir talay	
	Yod-gorlik									Betob			
											Kavkaz asirasi (obr.)		Cholg'u asbobi
		Bilimsiz											
										Yordam, ko'mak berish			
										... ishora		Uy hayvoni	
Yaylov, adir													
		Qonun	Shoh asar muallifi										

BITIRUV



KTECHASI

TONG YULDUZI
O'zbekiston Respublikasi respublika va o'zlas gazetas

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV

Navbatchi:
Feruz SOYIBJON qizi

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007 yil 2 fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergasvoy SARIQOV.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel/ faks: (99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV.

Noshir:
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
Adadi - 51615
Buyurtma N: J 3635